

**PARA FUTBOL 5X5 (KO‘ZI OJIZLAR) SPORT TURINI KELIB
CHIQISHI TARIXI**

Inagamova Iroda Ibrohim qizi

O‘zbekiston Jismoniy Tarbiya va Sport Universiteti
Adaptiv jismoniy tarbiya va sport yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya: Ushbu tezisda para futbol kelib chiqish tarixi va o‘yin haqida qisqacha ma’lumot berilgan va qoidalar yoritilgan va o‘yinda, qaysi toifa bo‘yicha para futbol o‘ynalishi haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: Para futbol 5x5, musobaqa, ko‘zi ojiz va zaif ko‘rvuchi,B1, B2, B3.

Annotation: In this thesis, money is given briefly about the history of the origin of football and the game, and the rules are illuminated and the information about the game is given.

Keywords: Para football 5x5, competition,blind and weak seer, B1, B2, B3.

Paralimpiya harakatini rivojlantirishga doir qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida. Yurtimizda imkoniyati cheklangan va nogironligi bo`lgan shaxslarga sport bilan shug`ullanish uchun zarur shart-sharotlar yaratish, ularni xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirok etishini ta`minlashda va davlat tomonidan qo`llab-quvvatlash maqsadida, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi PF-5924-son va 2020 yil 30-oktabrdagi “Sog`lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi qarori tasdiqlandi.

Ushbu qarorlar yurtimizda imkoniyati cheklangan va nogironligi bo`lgan shaxslarni sport bilan shug`ullanishlari uchun dastur-u amal bo`lib xizmat qilmoqda.

5x5 futbol (futzel) - bu mini-futbolning moslashtirilgan versiyasi bo‘lib, uni zaif ko‘rvuchi va ko‘zi ojiz sportchilar o‘ynashadilar. Xalqaro ko‘rlar sporti federatsiyasi (IBSA) boshqaruvni amalga oshiradi. Musobaqalarda FIFA ning moslashtirilgan qoidalari qo‘llaniladi.

O‘yin maydoni o‘lchamlari kichikroq, bir metrga yaqin balandlikdagi to‘silqlar bilan o‘ralgan. Shunig uchun qoidalarga “o‘yindan tashqari holat” va muofiq ravishda to‘jni yon chiziqdandan tashlab berish kabilar yo‘q, bu o‘yining yana ham tezroq bo‘lishini ta’minlaydi. Jamoa to‘rt zaif ko‘rvuchi o‘yinchi va bitta ko‘radigan darvozabonda iborat bo‘ladi. Ko‘rish nuqtai nazaridan tenglikni ta’minalash uchun maydon o‘yinchilari ko‘zlariga niqob taqib, butun o‘yin davomida unga qo‘l tekkizmasliklari kerak, tannafus vaqtib bundan mustasno. Jamoa gid xizmatidan foydalanish huquqiga ega, u odatda, raqib darvozasi ortida turib ovozi bilan o‘z jamoasi hujumchisiga darvoza joylashgan yerga ishora qiladi. Diametri 20sm li to‘p harakatlanyotgan ovoz chiqaradi. Darvozabon uning darvozasi yaqinida o‘yin ketayongan vaqtida o‘z o‘yinchilariga buyruqlar berishi mumkin. Faqat darvozabonning to‘jni qo‘liga olishiga ruxsat beriladi.

Jarima zarbarali uch xolatda tayinlanadi.

1. Agar o‘yinchi qo‘llari bilan ko‘zdagi bog‘ichga tegsa;
2. Darvozabon o‘z zonasiga chegaralaridan chiqsa;
3. Agar maydon o‘yinchisi qarshi jamoa o‘yinchisini temsila yoki itarsa.

Match 25 daqiqали ikki qismdan iborat bo‘lib orada 10 daqiqalik tannafus beriladi. Uchrashuv davomida ko‘proq miqdorda gol urgan jamoa g‘olib bo‘ladi. Gollar miqdori teng bo‘lsa, g‘olib penaltiy bo‘yich aniqlanadi.

Tasniflash.

5x5 futbol o‘yinchilari ko‘rish qobiliyatining yo‘qolganligi darajasiga qarab uch sinfga bo‘linadi:

- B1- ko‘zi ojizlar yoki deyarli ojizlar – odam nurni ko‘radi ammo qo‘l shaklini ajratishga qodir emas;
- B2 – odamning ko‘rish qobiliyatini juda zaif – qo‘l shaklini ajratish qobiliyatidan ko‘rish o‘tkirligi 2/60 yoki ko‘rish maydoni ko‘pi bilan 5° gacha oraliqidagi.

- B3 – ko‘rish o‘tkirligi 2/60 dan 6/60 gacha yoki ko‘rish maydoni 5° dan 20° gacha oraliqda.

Musobaqalarning iki toifasi mavjud.

B1 sinfi o‘yinlari – ularda B1 sinfi sportchilari ishtirok etadi, gidlar va darvozabonlar bundan mustasno, ular yo ko‘ra olishlari, yoki B2 va B3 sinflariga mansub bo‘lishlari zarur.

B2/B3 sinfi o‘yinchilari – o‘yinchilari ularga B2 va B3 sinflari maydon o‘yinchilari ishtirok etadilar, bunda istalgan vaqtda maydonga B2 sinfininig ikki o‘yinchisi bo‘lishlari zarur. Paralimpiyachilarga musobaqalar faqat B1 toifasida o‘tkaziladi.

Futbal Yevropa bo‘ylab o‘z sayoxatini Ispaniyadan boshladi. Bu yerda 1986-yilda dunyoda ilk bor bu sport bo‘yicha milliy championat bo‘lib o‘tdi. Janubiy Amerikada birinchi milliy championat Brazilyada 1980- yilda tashkil qilindi. 1977 – yilda Yevropada va Amerika miqyosidagi dastlabki mintaqaviy championatlar o‘tdi 1998 – yilda esa birinchi jahon championatida Braziliyaliklar g‘oliblikni qo‘lga kiritdilar. 2000 – yilda yana shu holat takrorlandi, 2002 – yilda esa ulardan Argentina g‘oliblikni olib qo‘ydi. Ko‘zi ojizlar uchun futbolning rivojlanish yo‘lida katta qadam bu sport turining 2004 – yilda Afinada bo‘lib o‘tgan Yozgi Paralimpiya o‘yinlari kiritilishi bo‘ldi.

Hozirgi kunda 5x5 futbol jahoning 21 mamlakatid keng tarqalgan. Yurtimizda ushbu sport turi rivojlanishi uchun ilmiy uslubiy ta’minotini yaxshilash zarur, yangi vositalar, innovatsion usullar yoritilgan ilmiy manbalar ushbu sport turini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Paralimpiya tarixi va o‘yin qoidalari.O‘quv uslubiy qo‘llanma.-T.:Ilmiy texnika axboroti-press nashriyoti,2019.- 112b. Mirjamolov M.X ; Yunusuv S.A.; Svetlichnaya N.K.

2. Светличная Н.К Вопросы повышения физической активности подростков и молодежи в современных условиях//Физическое воспитание и спорт в высших учебных заведениях. – 2021. – С. 107-110.